



Atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon Jizzax viloyatida tavallud topgan. Yoshligidan onasi Komila aya va bobosi Mulla Azimdan ko'plab xalq ertaklari, doston va qo'shiqlarni tinglab ulg'aygan. Hamid Olimjon gazeta va jurnallarda jurnalist va muharrir sifatida ishlagan, shu bilan birga ijodiy faoliyatini ham davom ettirgan. U baxshilar ijrosidagi dostonlardan ilhomlanib, "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg" kabi yirik asarlar yaratadi.



Ertaklardan olingan so'zlar qatorida qaysi so'z ortiqcha ekanini toping.

o'gay

mehnatsevar

erka

sandiқ

kulol

tanga

boy

dehqon

malika

laylak

laylak

kampir

cho'pon

tanga

dasturxon

quyon

ayiq

sher

bobo

bo'g'irsoq



Oygul bilan Baxtiyor

Hamid Olimjon

Dostondan parcha

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.

Esimda o'sha damlar:
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.

O't bog'lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar.
Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo'lib ochilgan gul.

So'ylaguvchi devorlar,
Bola bo'p qolgan chollar...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi

Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim,
Uzun tunlar yotib jim.

Seza olardim kuchin,
Ko'pi yolg'on, ko'pi chin.
Ammo Oygul-Baxtiyor
Ertagini u takror
Qilar edi har kechin...





1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. Shoir bolalik kunlari haqida nimalarni esladi?
3. Buvisi aytgan ertaklarning qanday alohida jihatlarini esga oldi?
4. "Seza olardim kuchin, ko'pi yolg'on, ko'pi chin" misrasini qanday tushundingiz?
5. Siz bobo-buvilaringizdan eshitgan qanday ertaklarning nomini ayta olasiz?
6. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun kichik yoshdagi bolalarga ertaklar ko'p aytib beriladi?



Doston bu – liro-epik janrdagi badiiy asar. O'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea hikoya qilinadi. Undagi voqea keng ko'lamda bo'lib, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi.



Hikoyani qismlarga bo'ling.
Muallifning qiziqishlari bayon etilgan gaplarni o'qing.
Hikoyadan uning asosiy g'oyasi ochib berilgan qismini topib o'qing.



She'rni ifodali yod oling.